# “O‘ZBEKISTON POCHTASI” AJDA LOGISTIKA VA XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI YAXSHILASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

*Jo‘rayev Lazizjon Norovich[1], Xudoyberdiyev Rahmatillo Fozilliddinovich[1]*

*[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*
*E-mail: rfxudoyberdiyev24@gmail.com*

*KEYWORDS*

pochta logistika tizimi, xizmat sifati, “O‘zbekiston pochtasi” AJ, logistika samaradorligi, transport yo‘nalishlarini optimallashtirish, raqamli modellashtirish, oxirgi mil, avtomatlashtirish, GPS monitoring

*ABSTRACT*

Maqolada “O‘zbekiston pochtasi” AJ faoliyatida logistika jarayonlari va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida pochta logistika tizimining mavjud holati, transport infratuzilmasi, “oxirgi mil” yetkazib berish jarayoni, xizmat ko‘rsatish standartlari hamda xodimlar faoliyatining xizmat sifati va umumiy samaradorlikka ta’siri yoritib berilgan. Shuningdek, logistika markazlarini hududiy optimallashtirish, transport yo‘nalishlarini raqamli modellashtirish, avtomatlashtirish va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali pochta xizmatlarining tezkorligi, shaffofligi va mijozlar qoniqish darajasini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

## Kirish


“O‘zbekiston pochtasi” AJ faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, logistika jarayonlarining samaradorligi va xizmat ko‘rsatish sifati pochta xizmatlarining umumiy iqtisodiy natijadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Pochta xizmatlari ko‘p bosqichli logistika zanjiriga ega bo‘lib, har bir bosqichdagi nomutanosiblik yetkazib berish muddatlarining cho‘zilishi, xarajatlarning ortishi va mijozlar qoniqish darajasining pasayishiga olib keladi. Shu bois, pochta operatori faoliyatida logistika va xizmat sifatini yaxshilash strategik ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrdagi “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4921-son Qarorida pochta jo‘natmalarini yetkazib berishda logistika tizimini qayta ko‘rib chiqish orqali pochta jo‘natmalarini yetkazib berishning nazorat muddatlarini qisqartirish bo‘yicha topshiriqlar berilgan[2]. Shuni inobatga olgan holda pochta almashinuvida foydalanilayotgan avtotransport parki yangilangan, jumladan kichik hajmdagi 35 ta “Damas”, 75 ta “Caddy” va 4 ta “GAZel” hamda 4 ta katta hajmdagi “ISUZU” rusumli, jami 110 ta kichik hajmdagi va 8 ta katta hajmdagi yuk tashuvchi avtotransport vositalari xarid qilingan. Buning natijasida, magistral va viloyat ichki pochta almashinuvlarining soni ko‘payishiga erishilgan, jumladan avval pochta almashinuvlari haftasiga 5 marotaba o‘tkazilgan bo‘lsa, endilikda haftasiga 6 marotaba o‘tkazilmoqda. Tumanlarda joylashgan pochta aloqasi bog‘lamalari ham qo‘shimcha avtotransport vositalari bilan ta’minlandi, ba’zi ichki marshrutlar qayta tiklandi. Shuningdek, “Bir qadam” xizmati yo‘lga qo‘yilib, ushbu xizmat uchun qo‘shimcha 2 ta magistral yo‘nalishda pochta almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, pochta jo‘natmalarni yetkazib berishning logistika tizimi qayta ko‘rib chiqildi. Bunda pochtalonlar elektroskuterdan foydalangan holda pochta jo‘natmalarni markazdagi pochta saralash bo‘limidan “bog‘lama-mijoz” sxemasi asosida olib, oluvchilarga yetkazib berish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi va pochtalonlar 500 ta elektroskuterlar bilan ta’minlandi. Buning natijasida, mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilandi hamda pochta jo‘natmalarni yetkazib berish vaqtini qisqartirishga erishildi, ya’ni avval pochtalonlar tomonidan pochta jo‘natmalari oluvchilarga 2-3 kun ichida yetkazib berilgan bo‘lsa, hozirgi kunda elektroskuter orqali 1 kun ichida oluvchilarga yetkazib berilmoqda. Pochta jo‘natmalarni yetkazib berishning logistika tizimini takomillashtirish ishlari kelgusi yillarda ham davom ettirish ko‘zga tutilgan. Jumladan,

© L.N. Jo‘rayev, R.F. Xudoyberdiyev

avtotransport orqali amalga oshiriladigan magistral, viloyatichi va tumanichi pochta yo‘nalishlari qayta ko‘rib chiqilmoqda. Shuningdek, havo transporti orqali pochta jo‘natmalarini barcha viloyat markazlarigacha yetkazib berish imkoniyatlari o‘rganib chiqilmoqda. Bundan tashqari, magistral, viloyat va tuman ichida pochta almashinuvini amalga oshirayotgan jami 298 ta, shu jumladan 75 ta “Caddy”, 216 ta “Damas”, 6 ta “GAZel” va 1 ta BYD avtotransport vositalariga GPS monitoring qurilmasi o‘rnatilib, ushbu monitoring tizimi orqali avtotransport vositalaridan unumli foydalanilishi monitoringi yo‘lga qo‘yildi[3].

Zamonaviy sharoitda pochta logistikasiga qo‘yiladigan talablar keskin o‘zgargan: tezlik, aniqlik, shaffoflik va mijozga yo‘naltirilganlik asosiy mezonlarga aylangan. Bu esa logistika tizimini faqat tashkiliy jihatdan emas, balki texnologik va boshqaruv nuqtayi nazaridan ham tubdan takomillashtirishni talab etadi. 1-rasmda “O‘zbekiston pochtasi” AJda logistika va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlarining sxemasi keltirib o‘tilgan[4,5].





*1- rasm. “O‘zbekiston pochtasi” AJda logistika va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari*

**1. Pochta logistika markazlarini hududiy optimallashtirish**

Logistika samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri pochta logistika markazlarining hududiy joylashuvini optimallashtirish hisoblanadi. Amaldagi tizimda markazlarning notekis joylashuvi ayrim hududlarda ortiqcha yuklama, boshqa hududlarda esa resurslardan to‘liq foydalanilmasligiga olib kelishi mumkin[6]. 2-rasmda hududiy optimallashtirishni hal etishga xizmat qiladigan vazifalar keltirib o’tilgan.

© L.N. Jo‘rayev, R.F. Xudoyberdiyev





*2- rasm. Hududiy optimallashtirishni hal etishga xizmat qiladigan vazifalar.*

Natijada logistika markazlari o‘rtasidagi integratsiya kuchayib, pochta tarmog‘ining umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati oshadi.

**2. Transport yo‘nalishlarini raqamli modellashtirish**

Transport xarajatlari pochta xizmatlari tannarxida salmoqli ulushga ega. Shu bois, transport yo‘nalishlarini raqamli modellashtirish va optimallashtirish logistika samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[7]. 3-rasmda raqamli modellashtirish natijasida yaratiladigan imkoniyatlar ko‘rsatib o‘tilgan.




*3- rasm. Raqamli modellashtirish yaratadigan imkoniyatlar*

Eng qisqa va tejamkor marshrutlarni aniqlash. Raqamli modellashtirish transport yo‘nalishlarini masofa, vaqt va yoqilg‘i sarfi bo‘yicha tahlil qiladi hamda eng kam xarajat talab etadigan marshrutlarni aniqlash imkonini beradi. Bu yetkazib berish muddatlarini qisqartirish va logistika xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Yuklama va transport vositalaridan foydalanish darajasini optimallashtirish. Raqamli modellar transport vositalarining yuk sig‘imi va qatnov chastotasini hisobga olib, ularning samarali band bo‘lishini ta’minlaydi. Natijada bo‘sh qatnovlar qisqaradi va mavjud resurslardan maksimal darajada foydalaniladi.

© L.N. Jo‘rayev, R.F. Xudoyberdiyev

Yo‘l sharoitlari va vaqt omilini inobatga olgan holda yetkazib berishni rejalashtirish. Modellashtirish jarayonida yo‘l tirbandligi, ob-havo sharoitlari va yetkazib berish vaqtiga ta’sir etuvchi omillar hisobga olinadi. Bu esa yetkazib berish jarayonining aniqligi va barqarorligini oshiradi.

Favqulodda holatlarda tezkor qaror qabul qilish. Transport kechikishi yoki texnik nosozliklar yuzaga kelganda, raqamli modellar muqobil marshrut va yechimlarni tezkor taklif etadi. Bu logistika jarayonlarida uzilishlarning oldini olishga va xizmat sifati pasayishini kamaytirishga yordam beradi.

Mazkur yondashuv transport jarayonlarining shaffofligini oshirib, logistika xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

### 3. “Oxirgi mil” (last mile delivery) tizimini takomillashtirish

Oxirgi mil yetkazib berish yetkazib berish jarayonining yakuniy bosqichi bo‘lib, unda mahsulotlar taqsimlash markazidan to‘g‘ridan to‘g‘ri iste’molchining manziliga – odatda mijozning uyi yoki biznes obyektiga yetkaziladi.

Oxirgi mil yetkazib berish atamasi dastlab telekommunikatsiya sohasida paydo bo‘lgan bo‘lib, u alohida uylarni kengroq tarmoqqa ulash bilan bog‘liq muammolarni ifodalagan. Logistika sohasida esa bu tushuncha biznes va iste’molchi o‘rtasidagi so‘nggi aloqa nuqtasini anglatadi. Mazkur bosqich yetkazib berish jarayonining eng murakkab va eng qimmat qismi hisoblanib, umumiy yetkazib berish xarajatlarining 53 foizdan ortig‘ini tashkil etadi[8].

Samarali tashkil etilgan oxirgi mil yetkazib berish strategiyasi kompaniyani raqobatchilardan ajratib turuvchi muhim omil bo‘la oladi. Elektron tijoratning jadal rivojlanishi natijasida mijozlar bir kunlik yoki hatto o‘sha kunning o‘zida yetkazib berish kabi xizmatlarni talab qilmoqda. Ushbu talablarni qondira olgan kompaniyalar ko‘proq mijozlarni jalb etib, bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.


Uzluksiz va sifatli oxirgi mil yetkazib berish tajribasi mijozlar ishonchini mustahkamlashda hamda brend obro‘yini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yetkazib berish tezligi, mahsulotning yetib kelgandagi holati va real vaqt rejimidagi kuzatuv imkoniyatlari mijozlar qoniqishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va takroriy xaridlarni rag‘batlantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Oxirgi mil logistikasini optimallashtirish, jumladan marshrutlarni rejalashtirish va real vaqt monitoringi uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali operatsion samarasizliklarni kamaytirish va qayta yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartirish mumkin. Bu nafaqat xarajatlarni tejaydi, balki transport chiqindilarini kamaytirish orqali ekologik barqarorlikka ham hissa qo‘shadi.

Pochta xizmatlarida “oxirgi mil” bosqichi eng murakkab va xarajat talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Aynan ushbu bosqichda xizmat sifati mijoz tomonidan bevosita baholanadi. Shuning uchun “oxirgi mil” tizimini takomillashtirish pochta xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. 4-rasmda “Oxirgi mil” yetkazib berish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari keltirib o‘tilgan.

Kuryerlik xizmatlarini hududiy rejalashtirish. Hududiy rejalashtirish orqali kuryerlik xizmatlari xizmat ko‘rsatish zonalariga ajratiladi va har bir hudud uchun alohida yetkazib berish rejasi ishlab chiqiladi. Bu kuryerlarning ortiqcha masofa bosib o‘tishini kamaytirib, yetkazib berish tezligi va aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Yetkazib berish vaqt oynalarini aniqlash. Mijozlar ehtiyojlari va transport yuklamasini inobatga olgan holda yetkazib berish vaqt oynalarini belgilash xizmat sifati oshishiga olib keladi. Ushbu yondashuv yetkazib berishdagi kechikishlarni kamaytirib, mijozlarning qoniqish darajasini oshiradi.

© L.N. Jo‘rayev, R.F. Xudoyberdiyev




*4-rasm. “Oxirgi mil” yetkazib berish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari*

Kuryerlar faoliyatini mobil ilovalar orqali boshqarish. Mobil ilovalar yordamida kuryerlarning joylashuvi, yetkazib berish holati va bajarilgan buyurtmalar real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Bu boshqaruv jarayonlarini soddalashtirib, tezkor qaror qabul qilish imkonini yaratadi.

Muqobil yetkazib berish nuqtalarini (pochtomatlar, pochta punktlari) rivojlantirish. Muqobil yetkazib berish nuqtalarining kengaytirilishi mijozlarga qulaylik yaratib, kuryerlik yuklamasini kamaytiradi. Pochtomat va pochta punktlari orqali yetkazib berish logistika xarajatlarini qisqartirib, “oxirgi mil” jarayonining umumiy samaradorligini oshiradi.

Ushbu chora-tadbirlar yetkazib berish tezligini oshirib, qayta yetkazib berish holatlarini kamaytiradi va mijozlar qoniqishini oshiradi.

### 4. Xizmat ko‘rsatish standartlarini joriy etish va monitoring qilish

Xizmat sifatini oshirishda aniq va o‘lchab bo‘ladigan standartlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Pochta xizmatlarida xizmat ko‘rsatish standartlari joriy etilishi xizmat sifati barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. 5-rasmda xizmat standartlari qamrab olinishi zarur bo‘lgan jihatlar keltirib o‘tilgan.


Jo‘natmalarni qabul qilish va yetkazib berish muddati. Xizmat standartlarida pochta jo‘natmalarini qabul qilish, qayta ishlash va yetkazib berishning aniq muddatlari belgilanishi lozim. Bu xizmatlarning barqarorligini ta’minlab, mijozlar tomonidan xizmat sifatiga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Tracking aniqligi va xabardor qilish darajasi. Jo‘natmalarni kuzatish tizimining aniqligi hamda mijozlarni yetkazib berish jarayonining har bir bosqichi haqida o‘z vaqtida xabardor qilish xizmat sifatining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shaffof tracking mijozlar qoniqishini oshiradi va murojaatlar sonini kamaytiradi.

Shikoyatlarni ko‘rib chiqish vaqti. Xizmat standartlarida mijozlar shikoyatlarini qabul qilish, ko‘rib chiqish va javob berishning maksimal muddatlari belgilanishi zarur. Bu mijozlar bilan samarali muloqotni ta’minlab, tashkilotning ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi.

Xizmat ko‘rsatish madaniyati. Xodimlarning mijozlar bilan muomala qilish madaniyati, xizmat ko‘rsatish etikasi va professionalligi xizmat sifatining ajralmas qismi hisoblanadi. Yuqori xizmat madaniyati tashkilotning ijobiy imijini shakllantiradi.

© L.N. Jo‘rayev, R.F. Xudoyberdiyev




*5-rasm. Xizmat standartlari qamrab olinishi zarur bo‘lgan jihatlar*

Monitoring tizimi orqali ushbu standartlarga rioya etilishi doimiy nazorat qilinadi va aniqlangan kamchiliklar tezkor bartaraf etiladi.

**5. Xodimlar malakasini oshirish va motivatsiya tizimini kuchaytirish**

Logistika va xizmat ko‘rsatish sifati ko‘p jihatdan inson omiliga bog‘liq. Shu sababli xodimlar malakasini oshirish va ularni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish muhim yo‘nalish hisoblanadi. Xodimlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida logistika va servis yo‘nalishlari bo‘yicha muntazam treninglar tashkil etilishi, raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda natijaga asoslangan rag‘batlantirish tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, xizmat sifati ko‘rsatkichlariga bog‘langan baholash mexanizmi xodimlar faoliyatini obyektiv tahlil qilish imkonini beradi. Xodimlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirish rejasini individual asosda shakllantirish, ichki attestatsiya va sertifikatlash tizimini joriy etish ularning professional salohiyatini oshiradi.

Bundan tashqari, xodimlar faoliyatini raqamli monitoring va tahlil qilish tizimini joriy etish hamda jamoada sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish xizmatlar barqarorligi va sifatining oshishiga xizmat qiladi. 6-rasmda xodimlar bilan ishlashda amalga oshiriladigan samarali chora-tadbirlar keltirib o‘tilgan.

Logistika va servis bo‘yicha muntazam treninglar. Logistika va servis yo‘nalishlari bo‘yicha muntazam treninglar xodimlarning kasbiy bilimlarini yangilab borish va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Treninglar orqali yetkazib berish jarayonlari, mijozlar bilan muloqot va xizmat ko‘rsatish standartlari bo‘yicha yagona yondashuv shakllanadi. Natijada xizmatlar sifati va tezkorligi oshadi.

Raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish pochta va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Axborot tizimlari, mobil ilovalar va monitoring platformalaridan samarali foydalanish xodimlar faoliyatining shaffofligini oshiradi. Bu esa inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirib, boshqaruv samaradorligini kuchaytiradi.

Natijaga asoslangan rag‘batlantirish tizimi. Natijaga asoslangan rag‘batlantirish tizimi xodimlarning ish samaradorligi va erishilgan ko‘rsatkichlariga bevosita bog‘liq bo‘lgan moddiy va nomoddiy rag‘batlarni nazarda tutadi. Ushbu tizim xodimlarni belgilangan maqsadlarga erishishga undaydi. Natijada mehnat unumdorligi oshib, xizmat sifati yaxshilanadi.

Xizmat sifati ko‘rsatkichlariga bog‘langan baholash mexanizmi. Xizmat sifati ko‘rsatkichlariga asoslangan baholash mexanizmi xodimlar faoliyatini aniq va obuyektiv tahlil qilish imkonini beradi. Baholash indikatorlari yetkazib

© L.N. Jo‘rayev, R.F. Xudoyberdiyev


berish tezligi, aniqligi va mijozlar qoniqish darajasini qamrab oladi. Bu tizim kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rishga xizmat qiladi.

Xodimlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirish rejasini individual asosda shakllantirish. Har bir xodim uchun individual kasbiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish ularning bilim va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Bu yondashuv xodimlarning uzoq muddatli motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, kadrlar barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ichki attestatsiya va sertifikatlash tizimini joriy etish. Ichki attestatsiya va sertifikatlash tizimi xodimlarning bilim darajasi va professional tayyorgarligini muntazam baholab borishni ta’minlaydi. Sertifikatlash jarayoni xizmat ko‘rsatish sifatiga bo‘lgan talablarni kuchaytiradi. Natijada mas’uliyat va intizom darajasi oshadi.

Xodimlar faoliyati bo‘yicha raqamli monitoring va tahlil tizimini joriy etish. Raqamli monitoring tizimlari yordamida xodimlar faoliyati real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Ushbu tizimlar ish samaradorligini tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi. Bu resurslardan oqilona foydalanish va jarayonlarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Jamoada sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish. Sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit xodimlar o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi. Bu jamoaviy ishlash samaradorligini oshirib, xizmat barqarorligini ta’minlaydi. Natijada mijozlar bilan muloqot sifati ham yaxshilanadi.




*6-rasm. Xodimlar bilan ishlashda amalga oshiriladigan samarali chora-tadbirlar ketma-ketligi*

Bu choralar xodimlarning mas’uliyatini oshirib, xizmat sifatining barqaror yaxshilanishiga olib keladi.

**6. Mijozlar bilan qayta aloqa va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish**

© L.N. Jo‘rayev, R.F. Xudoyberdiyev

Xizmat sifatini oshirishda mijozlar bilan qayta aloqa mexanizmlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Mijozlarning murojaatlari, baholari va takliflari pochta xizmatlarini takomillashtirish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Shuningdek, logistika jarayonlarini avtomatlashtirish orqali:

- operatsion xarajatlarni qisqartirish, ortiqcha harakatlar va takroriy jarayonlarni bartaraf etish hisobiga;
- vaqt samaradorligini oshirish, buyurtmalarni qayta ishlash va yetkazib berish muddatlarini qisqartirish orqali;
- axborot shaffofligini ta’minlash, real vaqt rejimida monitoring va nazorat imkoniyatlari yordamida;
- rejalashtirish va prognozlash aniqligini oshirish, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish orqali;
- mijozlar qoniqishini oshirish, xizmat sifati va tezkorlikning yaxshilanishi natijasida;
- xavflarni kamaytirish, kechikishlar, yo‘qotishlar va favqulodda holatlarni oldindan aniqlash orqali;
- integratsiyani kuchaytirish, ta’minot zanjiridagi barcha ishtirokchilar o‘rtasida ma’lumot almashuvini yaxshilash hisobiga.

Natijada pochta xizmatlari iqtisodiy jihatdan samaraliroq va sifat jihatidan barqaror tizimga aylanadi.

## Xulosa

“O‘zbekiston pochtasi” AJda logistika va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash hududiy optimallashtirish, raqamli logistika, “oxirgi mil” tizimini takomillashtirish, xizmat standartlarini joriy etish hamda xodimlar salohiyatini oshirish orqali amalga oshirilishi lozim. Ushbu chora-tadbirlar pochta xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga, mijozlar qoniqishini ta’minlash va milliy pochta tizimining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston pochtasi” AJ misolida olib borilgan tahlillar pochta xizmatlarini modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash va milliy pochta tizimining raqobatbardoshligini ta’minlash mumkinligini ko‘rsatdi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrdagi “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4921-son Qarori.
3. “O‘zbekiston pochtasi” AJ Kuzatuv kengashining 2024 yil 8 noyabrdagi 18-sonli bayoni bilan tasdiqlangan 2025–2027 yillarga mo‘ljallangan BIZNES-REJASI.
4. Xudoyberdiyev R.F., Jo‘rayev L.N. *“O‘zbekiston pochtasi” AJ faoliyatida raqamli transformatsiya: zamonaviy trendlar va innovatsion yechimlar* // “Zamonaviy ilm-fanning dolzarb muammolari va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami. Farg‘ona 2025-yil 20-21-iyun. -B.251-253.
5. Jo‘rayev L.N., Mamatqulov G‘.R., Xudoyberdiyev R.F. *“Zamonaviy pochta aloqasi”* o‘quv qo‘llanma. Toshkent, Aloqachi-2017.
6. Mamatqulov G.R. *“O‘zbekiston Respublikasi pochta aloqasi korxonalarini raqamlashtirish istiqbollari”*// Raqamli iqtisodiyot, ilmiy-elektron jurnali. №1-son 2022. -B.174-182.
7. Ivanov, S., Zudilova, T., Voitiuk, T., Marchenko, E. & Ivanova, L. (2025). *Digital Technologies for Optimizing Transport Routes in Freight Logistics.* In Digital Geography (pp. 107-116). Springer Nature. DOI: 10.1007/978-3-031-96500-5_8.
8. Shuaibu, A. S., Mahmoud, A.S., Sheltami, T.R. (2025). *Last-Mile Delivery Optimization: Recent Approaches and Advances*. *Transportation Research Procedia*, 84, 299-306. https://doi.org/10.1016/j.trpro.2025.03.076

© L.N. Jo‘rayev, R.F. Xudoyberdiyev